

Maxkambayev A.X.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Usmonov Sh. F.

1-kurs magistranti, Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti

OLIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada oliv ta'linda kompetensiyviy ta'lim bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda ta'limning kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizim, ta'lim standarti, ta'lim kompetensiyalari, kompetensiya pasporti.

Makhkambayev A. X.

Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Uzbekistan

Usmonov Sh. F.

Master student, Chirchik State Pedagogical Institute

CHARACTERISTICS OF COMPETENCY-BASED APPROACH IN HIGHER EDUCATION

Abstract: The article discusses issues related to competency education in higher education. It highlights the characteristics of a competency-based approach to education.

Keywords: education system, education standard, educational competencies, competency passport.

O'zbekistonda zamonaviy oliv ta'limi tizimi islohot bosqichidadir: uzlusiz yagona kasbiy ta'lim tizimni yaratish, mahalliy va xalqaro ta'lim xizmatlari

bozori integratsiyasi va oliv ta'lim muassasasi(OTM)ning innovatsion salohiyatini rivojlantirish hisoblanib, bular birgalikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. OTM faoliyatining yakuniy natijasi, mobil kasbiy-komponentli, mintaqa, mamlakat va xorijdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qanday harakat qilishni biladigan malakali mutaxassisni tayyorlashdir.

Oliv ta'lim davlat ta'lim standarti(DTS)ni amalga oshirish, an'anaviy oliv ta'limdan komponentli ta'lim va tarbiyaning modeliga o'tishga qaratilgan, shuningdek kasbiy ta'lim sifatiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu masalalar ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlari orqali ko'rib chiqiladi: standartlar va dasturlar; ta'lim sifatini nazorat qilish tizimlari; ilmiy va pedagogik kadrlarning malakasi, ta'lim xizmatlari sifati, ta'lim sharoitlari, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi va ta'lim natijalaridir. OTMdA kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, talabani modellashtirish muammolarini dolzarblashtiradi. Bu muammolar: ta'limning izchilligi va uzlusizligi, ta'limning muayyan yo'nalishlari bo'yicha talabalarini o'qitishining turli bosqichlarida, umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalar darajalarini shakllantirish va baholashdir[1].

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvga o'tish jarayoni mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va talabalar uchun OTM darajasida hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab savollarni yuzaga keltiradi. Ular OTM bitiruvchisini modellashtirish va vakolatlarni shakllantirish uchun pasport va asosiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha dasturlarini ishlab chiqishda hal qilinishi kerak.

Masalan bu savollar:

- qanday kompetensiyalarni shakllantirish;
- OTM bitiruvchisining kompetentsiya modelini yaratish, uning tuzilishi va tarkibi, pasport va kompetensiyani shakllantirish dasturi;
- ta'lim texnologiyalari(usullari, metodlar) har-bir kompetentsiyani shakllantirishda foydalanish mumkinligi;
- talabalarning ta'lim natijalarini qanday shakllantirish masalasi;

- kompetentsiyani shakllantirish darajalarini aniqlashda, qanday baholash usullaridan foydalanish;

- umumta'lim maktabi va OTM o'rtaсидаги узвијлигни та'минлаш;

- kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha kompetensiyalarini ;

Zamonaviy oliy ta'limning asosiy maqsadi: malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, o'z kasbini yaxshi biladigan, kasbiy o'sishga tayyor, ijtimoiy moslashuvchan va professional harakatchan, yetarli darajadagi malakali mutaxassisni tayyorlashdir. Zamonaviy oliy ta'limga o'tish, mavjud davlat standartlari va an'anaviy ta'limdan, kompetentsiyali ta'limga o'tishga asoslangan asosiy ta'lim dasturlari, OTMlar uchun bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Oliy ta'lim muammolarining dolzarbliji, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qator holatlar bilan bog'liq[2]:

- yuqori tuzilmalarni qayta qurishda umumjahon an'analari va chuqur tizimli o'zgarishlarni o'z ichiga olgan shakllanishlar, ta'limga, mazmunga va baholashga ta'sir qiladi;

- potentsial ish beruvchilarining raqobatbardosh professional mutaxassisiga ehtiyojlari;

- ta'limni mintaqaviylashtirish, ya'ni mintaqqa hisobga olingan holda ta'limning mazmunan xususiyatlari, yo'naltirilganligi va mintaqaning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlari;

- ta'limda uзвијлик va ko'p darajalilik hisobga olingan holda, ta'limning uzluksizligi;

Yuqoridagi muammolar to'g'ridan-to'g'ri OTM bitiruvchilarining vakolatlarini modellashtirish va ularning shakllanish yo'llarini belgilash bilian bog'liqdir. Buning uchun professor-o'qituvchilar uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini tushunish muhimdir. Boloniya ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuv quyidagilarni anglatadi[2,4]:

- kompetentsiyalar akademik, kasbiy yo'nalishlar va undan yuqori darajali ta'lim uchun yagona kelishilgan til sifatida talqin etiladi;

- kompetensiyalar tili ta'lim natijalarini ifodalash uchun eng tushunarli va mos til hisoblanadi;

- standartlar va o'quv dasturlarini ta'lim natijalariga bog'lanishi, kasbiy malakalarni butun Yevropa makonida taqqoslanadigan va shaffof qiladi[3].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning dolzarbligi shu bilan bog'liqki, bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan va erkin insonparvarlik yo'naltirilgan tanlovni amalga oshirishga tayyor ta'lim sohasidagi ijtimoiy strategiya sifatida belgilanadi. Ta'lim mazmuni yangilanishini, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy reallikka javoban, ta'limning maqsadlari - vektorlariga ustuvor yo'nalish sifatida, o'rghanish va o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini-o'zi anglash, ijtimoiylashish va individuallikni rivojlantirishdir.

A.A. Shexonin tomonidan taqdim etilgan model, kompetensiya-yo'naltirilgan ta'limga o'tish davrida OTMdA ta'lim tizimidagi dolzarblikning o'zgarishi haqida bir qator tasavvur beradi. OTM bitiruvchisining kompetensiyalarini modellashtirishda, professor-o'qituvchilar malakaga asoslangan mutaxassis tayyorlash modeling, komponentli mutaxassislar tayyorlash modelidan farqini tushunish muhimdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijasiga e'tiborni qaratib, ta'lim natija sifatida, o'zlashtirilgan ma'lumotlar yig'indisi emas, balki insonning turli xil vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir. DTS boyicha bilimga ega bo'lish natijasi, bitiruvchining egallagan kompetentsiyalari bilan belgilanadi. Ya'ni, uning bilimlari, ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini mutaxassisning faoliyati masalalariga mos ravishda qo'llash qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu DTS bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish natijasida, bitiruvchi kerakli kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lishi kereak[3].

V.S.Senashenko, V.F. Tenishcheva, E.M.Xarlanova ta'kidlaganidek, mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablar tizimini bilimlar tilidan kompetensiyalar tiliga o'tkazish tajribasi ko'rsatdiki, ushbu bosqichda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, bilim-malakaviy yondashuv bilan bir darajada bo'ladi. Amalda ushbu yondashuvlar asosidagi ta'lim modellari bir-

birini ihota qiladi. Chunki ma'lumot berishga asoslangan ta'lim modeli, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv elementlarini o'z ichiga oladi va aksincha[3].

| Ana'naviy yondashuv | Kompetensiyaga asoslangan yondashuv |
|---|--|
| Malaka egallahsga yo'nalgan va kasbiy faolyat predmetiga bog'liq. | O'zgaruvchan sharoitlarda kasbiy va ijtimoiy faoliyatning va hamma kasbiy turlarini bajarish birligida ifodalangan mutaxassis shaxsini shakllantirishga yo'nalgan. |
| Fundamentaliylik(akademik) mazmuni | Pragmatik, amaliy yo'nalish. Ish beruvchi bilan aloqa. |
| Ta'limning intizom modeli | Fanlararo (modul) model |
| Ta'lim dasturi fan sohalari belgilanadigan kurslar katta to'plamini tayyorlashdan iborat. | Ta'lim mazmuni asosida shakllanadigan fanlararo bilim va ko'nikmalar asosida shakllanadi. Professional faoliyatga tayyorlik. |
| Ta'lim texnologiyalarining akademik xarakteri. | Innovatsion texnologiyalar: proyektli ta'lim, modulli, interaktiv va rolli modellar. Kasbiy faoliyat kontekstida ta'lim olish. |
| Tartibga solinadigan DTS. (ta'lim mazmuniga asosiy e'tibor) | Ta'lim natijasiga qaratilgan texnologiya va mazmunni tanlashga imkon beradigan DTS qayishqoqligiga asoslangan. |
| Baholashning ball tizimi | Baholashning ball-reyting uzluksiz tizimi. |
| Professor-o'qituvchi-ta'lim | Talabalar bilan yagona ta'lim maqsadiga |

| | |
|--|---|
| jarayonining etakchisi. | birlashgan-professor-o'qituvchi-konsultant. |
| Talaba ta'lif jarayonining passiv ishtirokchisi. | Talaba malakani faol o'zlashtiradi. |

Malakaviy va komponentlik yondashuvlar xususiyatlarining qiyosiy tahlili quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

- ta'lif paradigmasini samarali ta'lif paradigmasi bilan almashtirish;
- ta'lif va tarbiyaning fanlararo xususiyati;
- zamonaviy sharoitlarda talabaning kasbiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun, ularning shaxsini rivojlantirish;
- barcha ta'lif elementlarining o'zgarishi: maqsadlar, mazmun, vositalar, usullar, ta'lif va tarbiya shakllari, ta'lif va tarbiya natijalari.
- talabalar bilimini o'zlashtirishning reproduktiv ta'lif darajasidan kompetensiyalarning shakllanish darajasiga o'tkazish;
- professor-o'qituvchi va talabaning pozitsiyasini o'zgartirish, ta'lif va tarbiyaning talabaga-yo'naltirilgan qayta yo'naltirilganligi;
- ta'lif jarayonini tashkil etishning modulli ta'lif texnologiyalariga o'tish;
- E'tiborni ta'lif natijasiga yonaltirish. Bunda ta'lif natijasi sifatida o'zlashtirilgan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki insonning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati qaraladi;
- asosiy e'tiborni professor-o'qituvchi va ta'lif mazmunidan, talaba va ta'lifning kutilayotgan natijalariga ko'chirish. Bu ta'lif jarayoni talabaga sezilarli yo'nalgaligida namoyon bo'ladi;
- talabalarning ta'lif natijalarini baholash tartibini o'zgartirish;
- ta'lif fazosini kengaytirish va uning ijtimoiy muhit bilan integratsiyasi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni ta'kidlash mumkinki, kompetentsiya

yondashuvi, mazmunini qurish yuqoridan pastga, uni o'zlashtirish usullarini pastdan yuqoriga yo'nalishini nazarga tutadi. Birinchi navbatda

bitiruvchining modeli aniq belgilanadi, so'ogra ushbu model uchun malakalar shakllanish va rivojlanish mazmuni tanlanadi. Demak, o'quv jarayonini tashkil etishda, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda, oliy ta'larning maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga imkon beradigan ushbu yondashuvning istiqbolli qo'llanilishini kelajakda ko'rish mumkin. OTMda bitiruvchining kompetentsiya modelini ishlab chiqish - kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Андреев А. Знания и компетенции. //Высшее образование в России. –2005. - №2. – С. 3-11.
2. Махкамбаев, А., Джурабоев, А. (2022). Использование адаптивной физической культуры при обучении студентов с инвалидностью и особыми физическими потребностями. Проблеми і перспективи розвитку спортивних ігор і єдиноборств у вищих навчальних закладах, 1(2), 133-137.
3. Maxkambayev, A. X. (2022). Yosh voleybolchilarining harakatlanish sifatlarini rivojlantirish. Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatining nazariy-amaliy muammolari, 4(5), 955-959.
4. Maxkambayev, A. X. (2022). 6-7 yoshli bolalarda jismoniy ko`nikma va malakalarni rivojlantirishda harakatli o`yinlarning roli. Jismoniy tarbiya sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatining nazariy-amaliy muammolari, 4(5), 55-59.
5. Махкамбаев, А. Х. (2022). Вопросы обучения студентов информационным технологиям в организации учебного процесса. Харьковская государственная академия физической культуры, 3(4), 155-159.

6. Махкамбаев, А. Х., Акбаров, А., Улугмуродова, Г. Ж. (2021). Педагогическая оценка значения двигательной активности студенческой молодежи. Современное состояние и перспективы развития, 2(3), 117-118.
7. Махкамбаев, А. Х., Акбаров, А., Ахмедов, Ш. Б. (2020). Роль мультимедиа и информационно коммуникационных технологий в физкультурном образовании. Ахборот технологияларининг замонавий муаммолари ҳамда уларнинг ечимлари, 1(2), 156-159.
8. Buriyev, B. U., Muxiddinova, F. A. (2022). O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining psixologik va jismoniy tayyorgarligini sport yakka o'yinlari orqali shakllantirish. ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI, 1(1), 145-149.
9. Buriyev, B. U., Djurabo'yev, A. M. (2022). Yosh voleybolchilar texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish va jismoniy tayyorgaliklarin amalga oshirish uslub va tamoyillari. Jismoniy tarbiya sport mashg'ulotlari nazariyasi, 1(1), 145-147.
10. Buriyev, B. U., Kadirov, R. R. (2021). Роль и место спортивных и подвижных игр в общей структуре учебно-производственной практики. 2021 yilda o'tkazilgan XXXII yozgi Olimpiya, 1(1), 100-103.
11. Buriyev, B. U., Qodirov, R. R., Kazoqov, R.T. (2021). Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyasining tuzilishi va tamoyillari. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari, 5(5), 555-559.
12. Кобилов, А. У., & Джурабоев, А. М. (2020). Технологии компьютерного дистанционного обучения. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 287-293.
13. Махкамбаев, А., Джурабоев, А. (2022). Использование адаптивной физической культуры при обучении студентов с инвалидностью и особыми физическими потребностями. Проблеми і

перспективи розвитку спортивних ігор і єдиноборств у вищих навчальних закладах, 1(2), 133-137.

14. Джўрабаев, А. М., Казоков, Р. Т. (2021). Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"ga bag'ishlangan, 4(4), 198-208.

15. Kazoqov, R. T., Djurabaev, A. M. (2021). Kredit modul tizimi nima. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, 4(4), 198-206.

16. Djuraboyev, A. M., Bozorova, S. X., Aminova, A. A. (2021). Jamiyatimizda jismonan sog'lom avlod tarbiyasi. Бешта муҳим ташаббус буюк келажак пойдевори, 3(3), 205-209.

17. Ibodov, A. I., Beknazarov, Sh. Q., Djuraboyev, A. M. (2021). Yuridik bilim berish v amalaka oshirish tizimini takomillashtirishning yangi ufqqlari. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, 2(3), 195-201.

18. Djuraboyev, A. M., Akbarov, A. (2021). Ilmiy tadqiqot materiallari bilan ishslashda zamonaviy AT foydalanish. Zamonaviy sharoitda JT va sportni ommaviy rivojlantirishning innovatsion yo'naliishlari, 1(2), 188-197.